
MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№5
MAXSUS SON

2026
NOYABR



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar · OPEN ACCESS · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · CYBERLENINKA
OpenAIRE · ROAD · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE · Crossref · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU

BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

Elektron nashr, 2026-yil, noyabr.
№ 5-maxsus son

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARI ORQALI MAMLAKAT HUDUDIGA JALB QILINADIGAN INVESTITSIYALAR HISOBI 9
Misirov Asliddin, Tursunpölatova Durdona, Abdusamadov Sanjar
TRANSPORT-LOGISTIKA KOMPANIYALARIDA XALQARO YUK TAŞIŞ JARAYONLARINI SAMARALI BOŞQARIŞ 13
Kaimov Amirxon, Işmanova Dinora
ÖZBEKISTON KORXONALARIDA KOMPANIYA QIYMATINI BAHOLAŞ MUAMMOLARI (UZAUTO MOTORS AJ MISOLIDA) 19
D. Ş. Xusanova, Safarova Gulruh
ÇARM ÇIQINDILARIDAN OLINGAN KOLLAGEN GIDROLIZATINING KOMPOZITSION QOĞOZ MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI 26
M. Ergaşev, R. Şerğoziyeva, O. Usmonova, M. Jörayeva
TIJORAT BANKLARINI XUSUSIYLAŞTIRIŞNING ÖZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 30
Ibadullayev Sanjar, A'zamova Muxlisa
EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI BÖYIÇA XARAJATLARNI HISOBGA OLIŞ TARTIBI VA UNI TAKOMILLAŞTIRIŞ YÖNALIŞLARI 36
Misirov Asliddin, Fayzullayeva E'zoza, Qodirova Azizaxon
IJTIMOIY TARMOQLARNING ISTE'MOLÇILARNING XARID QILIŞ XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI 41
Ğiyosiddinov Ozodbek , Kalanova Moxigul
DEVELOPMENT OF AN IOT-BASED REMOTE MONITORING AND AUTOMATED CONTROL SYSTEM FOR GREENHOUSE CROP GROWTH 47
Abasxanova Xalima, Sheraliyev Hasan, Hikmatullayev Habibullo, Nurbaeva Roza
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI 52
Şamuratov Sardorbek, Akbarov Nodir
RAQAMLI IQTISODIYOT ŞAROITIDA MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLAŞTIRIŞ YÖNALIŞLARI 57
Abdukaxxorova Durdona, Hakimova Muhabbat
GLOBAL TARAQQIYOT ŞAROITIDA INTELLEKTUAL AVLOD: ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSION RIVOJLANIŞ ISTIQBOLLARI 63
Inatullayeva Intizor, Öroqov Uçqun
UY XÖJALIKLARINING INSON KAPITALINI ŞAKLLANTIRIŞ VA RIVOJLANTIRIŞDAGI ROLI 68
Meylikov Fazliddin, Amrullayeva Zarina, Almardonova Farangiz
BIZNESNI TAŞKIL ETIŞNING MAQSADI VA AHAMIYATI 73
A.I. Xolbozorov, A.D. Qiryigitov, A.M. Misirov
XALQARO TA'LIM IMKONIYATLARI VA ULARNING YOŞLAR KELAJAGIDAGI AHAMIYATI 78
Omonova Nargiza, Ravşanov Xurşid
RAQAMLI IQTISODIYOT ŞAROITIDA BUXGALTER KASBINING ZAMONAVIY TALABLARI VA ISTIQBOLLARI 83
Esonturdiyeva Şaxlo, Ostonaqulov Alişer
KÖP QAVATLI TURAR JOY BINOLARIDA TAŞQI DEVOR ORQALI ISSIQLIK YÖQOTIŞLARINI KAMAYTIRIŞ VA IZOLYATSIYA QALINLIGINI OPTIMALLAŞTIRIŞ 87
Sanayev Şohzodbek, Hojiyev Dilşodbek, Qöziboyev Izzatbek, Ismoilov Şerdor, Tojinorov Diyorbek
NEUROMARKETING IS NOT ADVERTISING 96
Mahmudjonova Dinara Tursunboyevna
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KÖRSATUVÇI BIZNESLARNI BOŞQARIŞ STRATEGIYALARI 104
Ramazonqulov Sardorbek, Dinora Işmanova
SOCIO-ECONOMIC AND ENVIRONMENTAL EFFICIENCY OF DEVELOPING THE OLD CLOTHING RECYCLING SYSTEM IN UZBEKISTAN 108
Qulmurodova Sevinch, Boborajabova Sadoqat

YAŞIL IQTISODIYOT ŞAROITIDA EKOLOGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRIŞ 114
Arzuova Şargu, Mamutova Kamşat
BOŞQARUVNING ASOSIY FUNKSIYALARI, TAMOYILLARI VA ÖZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI AMALIY AHAMIYATI 119
Nusratova Çaros, Axmadova Fayyoza, Urinov Bobur
PRELIMINARY DESIGN AND ENERGY ASSESSMENT OF A SOLAR-PV CHARGING STATION FOR ELECTRIC SCOOTERS IN TASHKENT, UZBEKISTAN 124
Muxtorov U.A., Abduvaliyeva D.X., Umerov F.Sh., Asanov S.E.
ELEKTR TOKIDAN ŞIKASTLANIŞ, UNGA KÖRILADIGAN ÇORA-TADBIRLAR VA ULARNI BARTARAF ETIŞ YÖLLARI 129
Rahmonov Şahobiddin, Şomurotov Akobir, Ğaniboyev Rustam
ISSIQLIK TA'MINOTI TIZIMINING ENERGETIK SAMARADORLIGINI OŞIRIŞ: SUV ISITIŞ QOZONI, QUYOŞ KOLLEKTORI VA YER OSTI ISSIQLIK TARMOĞI MISOLIDA 134
Sanayev Şohzodbek, Hojiyev Dilşodbek, Ummatqulov Faxriddin, Xayrullayev Xumoyunxon, Yorqulov Rahmon
SUN'IY INTELLEKTNING BANK TIZIMI VA IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI 143
Asadova Maftuna, Bekmurodova Gözal
ÖZBEKISTONDA HUDUDIY MEHNAT BOZORI TAFOVUTLARI: BANDLIK VA IŞSIZLIK KÖRSATKIÇLARINING QIYOSIY TAHLILI 150
Axmadova Fayyoza, Nusratova Çaros, Urinov Bobur
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLAŞ MEXANIZMLARINI TAKOMILLAŞTIRIŞ 155
Karimova Sevinç, Ibroximov Ilxomjon
ÖZBEKISTONDA BANK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRIŞ ISTIQBOLLARI 160
Muhammadova Rahima, Ibroximov Ilxomjon

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

ÖZBEKISTONDA BANK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRIŞ ISTIQBOLLARI

Muhammadova Rahima Najmiddin qizi
Toşkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi

Ibroximov Ilxomjon Şavkatjon öğli
Toşkent Kimyo xalqaro universiteti
“Keçki ta’lim” fakulteti dekani, PhD, dotsent.
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-0559-6552

Annotatsiya. Maqolada Özbekiston bank tizimining 2026-yildagi holati tahlil qilinib, uning rivojlaniş istiqbollari baholangan. Tizim aktivlari 2026-yil 1-oktabr holatiga 1 044,8 trln sömga yetgani, sof foyda töqqiz oyda 40,3 foizga ösgani, depozitlar kreditlarga nisbatan tezroq ösgani aniqlandi. Şu bilan birga, muammoli kreditlar uluşi 3,0 foizdan 3,7 foizga oşgani, foydaning yirik banklarda töplanişi, dollarlaşuv va aholining qarz yuki asosiy xavflar sifatida körsatilgan. Raqamlaştiriş, davlat banklarini transformatsiya qiliş, Bazel III talablariga ötiş va islom moliyasini joriy etiş böyiça takliflar işlab çiqilgan.

Kalit sözlar: bank tizimi, aktivlar, kredit portfeli, rentabellik, muammoli kreditlar, dollarlaşuv, raqamli bank, Bazel III, rivojlaniş istiqbollari.

Abstract. The article analyses the state of Uzbekistan’s banking system in 2026 and assesses its development prospects. Banking assets reached UZS 1,044.8 trillion as of 1 October 2026, net profit for the first nine months rose by 40.3%, and deposits grew faster than loans. At the same time, the rise of the non-performing loan ratio from 3.0% to 3.7%, the concentration of profit in large banks, dollarization and household indebtedness are identified as the main risks. Proposals are developed on digitalization, the transformation of state-owned banks, the transition to Basel III and the introduction of Islamic finance.

Keywords: banking system, assets, loan portfolio, profitability, non-performing loans, dollarization, digital bank, Basel III, development prospects.

Аннотация. В статье анализируется состояние банковской системы Узбекистана в 2026 году и оцениваются перспективы её развития. Активы системы на 1 октября 2026 года достигли 1 044,8 трлн сумов, чистая прибыль за девять месяцев выросла на 40,3%, депозиты росли быстрее кредитов. Вместе с тем рост доли проблемных кредитов с 3,0% до 3,7%, концентрация прибыли в крупных банках, долларизация и долговая нагрузка населения выделены как основные риски. Разработаны предложения по цифровизации, трансформации государственных банков, переходу к требованиям Базеля III и внедрению исламского финансирования.

Ключевые слова: банковская система, активы, кредитный портфель, рентабельность, проблемные кредиты, долларизация, цифровой банк, Базель III, перспективы развития.

KIRIŞ

Bank tizimi Özbekiston iqtisodiyotida moliyaviy vositaçilikning asosiy böğini bölib, uning barqarorligi va ösişi iqtisodiy rivojlanişga bevosita ta’sir qiladi. Tijorat banklarining jami aktivlari 2026-yil 1-oktabr holatiga 1 044,8 trln sömni taşkil etib, bir yil avvalgi 866,8 trln sömga nisbatan 20,5 foizga oşgan [1]. 2025-yil yakunida mamlakatda 35 ta tijorat banki faoliyat körsatgan, kredit taşkilotlari aktivlari yalpi içki mahsulotning qariyb 50,7 foiziga teng bölgan [2].

2026-yil 1-yanvardan Bazel III standartlariga ötiş doirasida 2,5 foizlik kapitalni saqlaş buferi va 1,5 foizlik kontrsiklik bufer joriy etildi, 29-iyundan esa islom moliyasiga oid ÖRQ-1126-son Qonun kuçga kirdi [3]. Iqtisodiyot yuqori sur’atlarda ösmoqda: yanvar–sentabrda YAIM 8,3 foizga oşgan [4], Markaziy bank esa inflatsiyani pasaytiriş maqsadida asosiy stavkani 14 foiz darajasida saqlab turibdi [5].

Tadqiqot muammosi: bank tizimining yuqori ösiş sur’atlari bilan birga Markaziy bank çeklovçi pul-kredit va makroprudensial siyosat yuritmoqda, aktiv sifati esa yomonlaşuv alomatlarini körsatmoqda. Tadqiqot maqsadi: 2026-yildagi asosiy körsatkiçlar asosida bank tizimining holatini baholaş va rivojlaniş istiqbollarini aniqlaş. Vazifalar: makroiqtisodiy muhit, aktivlar, kapital va resurs bazasi dinamikasini tahlil qiliş; rentabellik va foyda manbalarini baholaş; kreditlaş tarkibi, dollarlaşuv va aktiv sifatini baholaş; rivojlaniş yönalişlari, drayverlar va

xavflarni aniqlab, amaliy takliflar işlab çiqiş.

Ilmiy yangilik şundan iboratki, bank tizimining 2026-yildagi holati oylik rasmiy ma'lumotlar asosida yagona körsatkiçlar tizimi orqali baholanib, ösiş sifati (foydaning töplanişi, kredit-depozit nisbati, davlat va xususiy banklar örtasidagi farqlar) bilan boğliq xulosalar asoslandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ŞARHI

Moliyaviy rivojlaniş va iqtisodiy ösiş örtasidagi boğliqlik köplab tadqiqotlarda isbotlangan. R. King va R. Levin moliyaviy vositaçilik darajasi yuqori bölgan mamlakatlarda iqtisodiy ösiş, kapital töplanişi va unumdorlik tezroq oşişini körsatgan [6], R. Levin esa bu yönalişdagi tadqiqotlarni umumlaştirgan [7]. Şu bilan birga, J.-L. Arkand va hammualliflar xususiy sektorga kreditlar YAIMning taxminan 100 foizidan oşganda moliyaning ösişga ta'siri salbiyga aylanişini aniqlagan [8]. Bu Özbekiston kabi moliyaviy çuqurligi hali örta darajada bölgan mamlakatlar uçun kreditlaşni kengaytiriş salohiyati mavjudligini, ammo ösiş sifatini nazorat qiliş zarurligini anglatadi.

Bank tizimi tuzilmasi nuqtayi nazaridan R. La Porta va hammualliflar banklardagi davlat uluşi yuqori bölgan mamlakatlarda moliyaviy rivojlaniş sekinroq keçişini körsatgan [9]. E. Levi Yeyati moliyaviy dollarlaşuv bank inqirozi xavfini va daromadlar beqarorligini oşirişini asoslagan [10], A. Mian va hammualliflar esa uy xöjaliklari qarzining tez ösişi keyingi yillarda YAIM ösişining sekinlaşuvini oldindan belgilaşini 30 mamlakat ma'lumotlari asosida körsatgan [11]. Raqamli transformatsiya böyiça T. Filippon moliyaviy texnologiyalar vositaçilik xarajatlarini kamaytirib, bank xizmatlari samaradorligini oşirişini ta'kidlagan [12].

Özbekiston bank tizimi böyiça Xalqaro valuta jamğarmasi va Jahon bankining 2025-yilgi moliya sektorini baholaş dasturi davlat banklarining ustunligi, korporativ boşqaruv va stress-ssenariylardagi kapital yetarliligi bilan boğliq zaifliklarni qayd etgan [13]. Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik şarhlari tizimning kapital va likvidlik zaxiralarini, aholi qarz yuki va dollarlaşuv dinamikasini muntazam baholaydi [14]. Biroq mavjud işlarda 2026-yildagi oylik körsatkiçlar asosida ösiş sifatini kompleks baholovçi tadqiqotlar yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikkilamçi ma'lumotlar tahliliga asoslangan. Ma'lumotlar Özbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistikasi, moliyaviy barqarorlik şarhi va matbuot xabarlaridan, şuningdek, Markaziy bank ma'lumotlariga tayangan oçiq manbalardan (Kursiv Uzbekistan, UzDaily, Anhor.uz, Kun.uz, Daryo) olindi. Tahlil davri – 2026-yil yanvar–oktabr oylari, taqqoslaş bazasi – 2025-yilning mos davrlari. Qöllanilgan usullar: tasviriy tahlil, vaqt böyiça dinamik taqqoslaş, nisbiy körsatkiçlar usuli, körsatkiçlarni jadval va diagrammalar orqali guruhlaş, şuningdek, SWOT-tahlil. Körsatkiçning ösiş sur'ati, muammoli kreditlar uluşi va kredit-depozit nisbati quyidagi formulalar böyiça hisoblandi:

$$g_x = (X_t - X_0) / X_0 \times 100\ \%\ (1)$$

$$NPL = \text{Muammoli kreditlar} / \text{Kredit portfeli} \times 100\ \%\ (2)$$

$$LTD = \text{Kredit portfeli} / \text{Depozitlar} \times 100\ \%\ (3)$$

bu yerda X_t ва X_0 - körsatkiçning joriy va bazaviy davrdagi qiymati. Çeklovlar: ayrim körsatkiçlar turli sanalar böyiça e'lon qilingan, ba'zi ma'lumotlar ikkilamçi manbalardan olingan, istiqbol baholari esa muallifning tahliliy xulosasi bölib, rasmiy prognoz hisoblanmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Makroiqtisodiy muhit

Bank tizimi faoliyati makroiqtisodiy şaroitlar bilan çambarças boğliq. 2026-yilda iqtisodiy ösiş yuqori bölib qoldi (yanvar–sentabrda YAIM 8,3 foiz), inflatsiya esa pasayiş tendensiyasini saqladi: sentabrda yillik inflatsiya 6,4 foiz, bazaviy inflatsiya 5,5 foizni taşkil etdi [15]. Markaziy bank 2026-yil uçun inflatsiya prognozini 6,5 foizdan 7 foizga oşirdi va 2027-yil oxirida 5 foizlik maqsadga erişişni kutmoqda [16]. Şu sababli asosiy stavka 14 foiz darajasida saqlandi (4-noyabr qarori) [5]; sömning dollarga nisbatan özgarişi birinçi çorakda −1,58 foizni taşkil etdi [16] (1-jadval).

1-jadval. Bank tizimi faoliyatiga ta'sir etuvçi makroiqtisodiy körsatkiçlar (2026-yil)

Körsatkiç	Qiymat	Sana/davr
YAIM real ösişi	8,3%	yanvar–sentabr [4]
Yillik inflatsiya / bazaviy inflatsiya	6,4% / 5,5%	sentabr [15]
Markaziy bank asosiy stavkasi	14%	4-noyabr qarori [5]

Körsatkiç	Qiymat	Sana/davr
Inflatsiya prognozi (2026-yil yakuni)	≈7%	noyabr prognozi [16]
Inflatsiya böyiça maqsad	5%	2027-yil oxiri [16]
Sömning dollarga nisbatan özgarişi	−1,58%	I çorak [16]

Manba: Özbekiston Respublikasi Markaziy banki va rasmiy makroiqtisodiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan [4; 14–16].


Aktivlar, kapital va resurs bazasi

2026-yil 1-oktabr holatiga tijorat banklarining jami aktivlari 1 044,8 trln sömga yetdi [1]. (1) formula böyiça hisoblanganda, yil boşidagi 924,8 trln sömga nisbatan ösiş 13,0 foizni taşkil etadi. Aktivlar ilk bor 1 kvadrillion sömdan oşdi: yilning birinçi yarmida xususiy banklar aktivlari 11,9 foizga, davlat banklari aktivlari esa 7 foizga ösdi [3]. Banklar kapitali 2025-yil 1-sentabrdagi 128,8 trln sömdan 2026-yil 1-sentabrda 151,5 trln sömga, ya'ni 18 foizga oşdi [17]. Asosiy körsatkiçlar 2-jadvalda, aktivlar dinamikasi 1-diagrammada keltirilgan.

2-jadval. Bank tizimining asosiy körsatkiçlari (2026-yil)

Körsatkiç	Qiymat	Sana
Jami aktivlar	1 044,8 trln söm	1-oktabr [1]
Kredit portfeli	659,1 trln söm	1-oktabr [18]
Depozitlar	501,0 trln söm	1-oktabr [18]
Banklar kapitali	151,5 trln söm	1-sentabr [17]
Sof foyda (yanvar–sentabr)	15,26 trln söm	1-oktabr [18]
ROA / ROE	2,37% / 14,1%	1-oktabr [19]
Kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR)	18,3%	1-yanvar [20]
Likvidlikni qoplaş koeffitsiyenti (LCR)	208%	1-yanvar [20]
Barqaror moliyalaştiriş koeffitsiyenti (NSFR)	120%	1-yanvar [20]
Muammoli kreditlar uluşi (NPL)	3,7%	1-sentabr [1]

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida [1; 17–21] muallif tomonidan tuzilgan.



1-diagramma. Tijorat banklari aktivlari dinamikasi, 2026-yil (trln söm)


Manba: Özbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2026-yildagi statistik ma'lumotlari hamda UzDaily va Anhor.uz axborotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [1; 16].

Resurs bazasida muhim ijobiy özgariş kuzatilmoqda: depozitlar kreditlarga nisbatan tezroq ösmoqda. Yilning birinçi yarmida depozitlar 13,5 foizga, kredit portfeli esa 6,4 foizga oşib, kredit-depozit nisbati qariyb 145 foizdan 136 foizga tuşdi [3]. 1-oktabr holatidagi ma'lumotlar böyiça (3) formula yordamida hisoblangan körsatkiç 659,1 / 501,0 × 100% ≈ 131,6 foizni taşkil etadi. Bank majburiyatlarida depozitlar uluşi bir yilda 49,5 foizdan

55,8 foizga kötarildi [1]. Biroq bu körsatkiç davlat va xususiy banklarda keskin farq qiladi: xususiy banklarda örtaça kredit-depozit nisbati 97 foiz bölsa, davlat banklarida 171 foizga yetadi [18]. Bu davlat banklarining davlat resurslari va taşqi qarzlarga boğliqligi saqlanib qolayotganini körsatadi.

Rentabellik va foyda manbalari

2026-yilning yanvar–sentabr oylarida banklarning jami sof foydasi 15,26 trln sömni taşkil etib, ötgan yilning mos davridagi 10,88 trln sömga nisbatan 40,3 foizga oşdi [18]. Foyda ösişi yil davomida yuqori böldi: birinçi çorakda qariyb 62 foiz [16], birinçi yarim yillikda 68,9 foiz [3] (2-diagramma). Aktivlar rentabelligi (ROA) 2,1 foizdan 2,37 foizga, kapital rentabelligi (ROE) 11,8 foizdan 14,1 foizga kötarildi [19].



2-diagramma. Banklarning jamlangan sof foydasi (trln söm)

Manba: Özbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025–2026-yillardagi statistik ma'lumotlari hamda UzDaily axborotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [18].

Foyda tarkibining tahlili uning sifati haqida muhim xulosalar beradi. Birinçidan, foyda ösişi asosan foizsiz daromadlar hisobiga ta'minlandi: sof foizsiz daromadlar 1,9 barobar oşib, 23,4 trln sömga yetdi, sof foiz marjasining aktivlarga nisbati esa 4,53 foizdan 4,24 foizga pasaydi [18]. Ikkinçidan, foyda yirik banklarda töplangan: aktivlari 30 trln sömdan ortiq bölgan 12 ta bank jami foydaning 67,5 foizini olgan [18]. Uçinçidan, tarmoq foydasi ösişining 44,9 foizi birgina bank – «Ipotekabank» hissasiga töğri kelgan; uni hisobga olmaganda qolgan banklar foydasi 22,4 foizga ösgan [17]. Demak, rentabellikning yuqori körsatkiçlari butun tizim böyiça bir tekis emas.

Kredit portfeli va uning tarkibi

Markaziy bank kredit ösişini ongli ravişda sekinlaştirmoqda. Yanvar–mart oylarida iqtisodiyotga 90 trln söm kredit ajratilib, bu ötgan yilning şu davriga nisbatan atigi 9,1 foizga köp böldi, holbuki 2025-yilning mos davrida ösiş 53,7 foizni taşkil etgan edi [16]. Yilning birinçi yarmida jami 191,4 trln söm kredit ajratildi (+5 foiz): biznesga kreditlar 14,2 foizga oşib, 121 trln sömga yetdi, aholiga ajratilgan kreditlar esa 7,6 foizga qisqarib, 70,4 trln sömni taşkil etdi [3]. Kredit portfeli yil boşidagi 604 trln sömdan 1-oktabrda 659,1 trln sömgaça, ya'ni 9,1 foizga oşdi [18].

Aholi kreditlaşi tarkibida makroprudensial çoralar ta'sirida çuqur özgarişlar yuz berdi: qarz yuki (DTI) va garov qiymati (LTV) çeklovlari hamda avtokredit va mikroqarzlar uçun portfelning 25 foizi miqdoridagi limit joriy etildi [16]. Natijada yilning birinçi yarmida mikroqarzlar ajratiş 47,8 foizga qisqardi, kredit kartalari 86,6 foizga, avtokreditlar 64,8 foizga, ipoteka kreditlari 38,6 foizga ösdi [3]. 1-avgust holatiga aholiga kreditlar qoldiği 239,8 trln sömga yetdi: ipoteka – 88,1 trln söm (36,7%), mikroqarzlar – 51,1 (21,3%), mikrokreditlar – 46,7 (19,5%), boşqa kreditlar – 53,9 trln söm (22,5%) [29] (3-jadval). 1-sentabrga kelib aholining banklar oldidagi qarzi 243,6 trln sömga yetib, yil boşidan 10,6 foizga oşdi [30]. Ipoteka bozori davlat dasturlari bilan qöllab-quvvatlanmoqda: Prezidentning 2026-yil 24-fevraldagi PF-29-son Farmoniga köra, 2026-yilda 23 trln söm ipoteka krediti ajratilişi va 140 ming xonadon foydalanişga topşirilişi rejalaştirilgan [31].

3-jadval. Jismoniy şaxslarga ajratilgan kreditlar qoldiği tarkibi (2026-yil 1-avgust)

Kredit turi	Qoldiq, trln söm	Uluşi, %
Ipoteka kreditlari	88,1	36,7
Mikroqarzlar	51,1	21,3
Mikrokreditlar	46,7	19,5
Boşqa kreditlar (avtokredit, karta va h.k.)	53,9	22,5
Jami	**239,8**	**100,0**

Manba: Anhor.uz hamda Özbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [18; 21].

Kreditlaşdagi dollarlaşuv hamon yuqori. 2026-yil 1-yanvar holatiga xorijiy valutadagi kreditlar portfelning 39 foizini taşkil etib, bir yilda qariyb 4 foiz bandga kamaygan, valutadagi depozitlar uluşi esa 25 foizdan 21 foizga tuşgan [32]. Biroq birinçi çorakda valutadagi kreditlar 39,6 foizga ösib, ularning uluşi yana 40 foizga kötarildi [16]. Buning asosiy sababi foiz stavkalaridagi katta farqdir: iyun oyida sömdagi kreditlarning örtaça stavkasi 19,8 foiz, valutadagi kreditlarniki esa 10,3 foiz bölgan [3].

Aktiv sifati

2026-yilda aktiv sifatining yomonlaşuvi kuzatildi. (2) formula böyiça hisoblangan muammoli kreditlar uluşi 1-yanvardagi 3,0 foizdan (18,06 trln söm) 1-sentabrda 3,7 foizga (24 trln söm) kötarildi [1; 20]. Muammoli kreditlarning asosiy qismi davlat banklarida töplangan: 1-avgust holatiga ularning 70,2 foizi (16,8 trln söm) davlat uluşi mavjud banklarga töğri keladi; eng katta hajmlar Milliy bank (3,2 trln söm) va «Agrobank»da (3,18 trln söm) qayd etildi [19]. Yilning birinçi yarmida davlat banklarida NPL uluşi 3,2 foizdan 3,9 foizga, xususiy banklarda esa 2,6 foizdan 2,9 foizga oşdi [3]. Şu bilan birga, «Oktobank», UzKDB Bank va «Uzum bank» birinçi çorak yakunida muammoli kreditlarsiz işlagan [16], bu kredit riskini samarali boşqariş mumkinligini körsatadi.

Natijalar bank tizimining kuçli kapital va likvidlik zaxirasiga ega ekanini körsatadi: kapital yetarliligi 18,3 foiz, likvidlikni qoplaş koeffitsiyenti 208 foiz [20]. Şu bilan birga, ösiş sifati bir xil emas. Korporativ kreditlaş ösişni ta'minlagan bölsa, aholi kreditlaşi Markaziy bank çeklovlari ta'sirida avval qisqardi, keyinroq tiklandi. Banklar marjalarni saqlaş uçun kredit kartalari va ta'minlanmagan iste'mol kreditlari kabi yuqori riskli segmentlarni kengaytirmoqda; S&P Global Ratings mutaxassisi bu tendensiyani, şuningdek, jismoniy şaxslar depozitlari ösişining sekinlaşuvini asosiy xavflar qatoriga kiritgan [3].

Valuta kreditlarining tez ösişi kurs tebranişlariga sezgirlikni oşiradi. Fitch Ratings eksportdan daromadi çeklangan kiçik va örta biznesda dollarlaşuvni muhim xavf deb baholaydi [3]; bu xalqaro tadqiqotlar xulosasiga mos keladi [10]. Aholi qarz yuki ham e'tibor talab etadi: qarz olgan şaxslarning örtaça qarzga xizmat körsatiş xarajatlari daromadining 37 foizini taşkil etmoqda [20]. Mian va hammualliflar tadqiqotiga köra, uy xöjaliklari qarzining tez ösişi kelgusida iqtisodiy ösişni sekinlaştirişi mumkin [11].

Davlat banklarining ustunligi va ularda muammoli kreditlarning töplanişi tizimning tarkibiy muammosi bölib qolmoqda, bu La Porta va hammualliflar xulosasiga mos keladi [9]. Fitch bahosiga köra, yaqin muddatda yirik davlat banklarini xususiylaştiriş böyiça bitimlar kutilmaydi, MHXS 9 va zaxira şakllantiriş böyiça yangi talablar esa ayrim davlat banklarining foyda va kapitaliga salbiy ta'sir körsatişi mumkin [3]. XVJ ham noqulay stress-ssenariyda davlat banklarida kapital yetarliligi minimal talabdan pastga tuşişi mumkinligini qayd etgan [13]. Aniqlangan omillar 4-jadvalda SWOT-tahlil şaklida umumlaştirildi.

4-jadval. Özbekiston bank tizimining SWOT-tahlili (2026-yil)

Kuçli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
Yuqori kapital va likvidlik zaxiralari (CAR 18,3%, LCR 208%); depozit bazasining tez ösişi; rentabellikning oşişi (ROE 14,1%); xususiy va raqamli banklarning jadal rivojlaniş	Davlat banklarining ustunligi va ularda NPL töplaniş; foydaning yirik banklarda töplaniş; davlat banklarida kredit-depozit nisbatining yuqoriligi (171%); dollarlaşuv
Imkoniyatlar (O)	**Tahdidlar (T)**
YAIMning yuqori ösişi (8,3%); inflatsiyaning pasayişi va kelgusida stavkaning kamayişi; ipoteka va KÖB kreditlaşini kengaytiriş; islom moliyasi; raqamli xizmatlar va oçiq bank tizimi	Muammoli kreditlar ösişi; aholi qarz yuki (DSTI 37%); yuqori riskli çakana kreditlar tebranişlari; kiberxavfsizlik risklari; MHXS 9 va Bazel III talablari ta'sirida kapital bosimi

Manba: Markaziy bank va XVJ hisobotlari, şuningdek, maqoladagi tahlil natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan [12; 13; 20; 21].

Rivojlaniş istiqbollari va takliflar

Tahlil natijalari asosida bank tizimining yaqin yillardagi asosiy rivojlaniş yönalişlari, ularning drayverlari va

xavflari 5-jadvalda umumlaştirildi.

5-jadval. Rivojlaniş yönalişlari, drayverlar va xavflar

Yönaliş	Ösiş drayveri	Asosiy xavf
Raqamlaştiriş va raqamli banklar	Onlayn xizmatlarga talab, yangi öyinçilar (masalan, «Uzum bank»), karta va tölov xizmatlarining ösişi	Kiberxavfsizlik, firibgarlik, raqobat bosimi
Xususiy sektorni kreditlaş	Korporativ kreditlaşning ösişi (+14,2%), iqtisodiy faollik	Qarzdor sifatining yomonlaşuvi, valuta riski
Aholiga xizmatlar (ipoteka, avtokredit)	Uy-joy va iste'molga barqaror talab, davlat ipoteka dasturi	Aholi qarz yuki, regulyator çeklovlari
Kapitalni mustahkamlaş va Bazel III	Kapitalning ösişi, yangi buferlar, MHXS 9	Zaxiralar oşişi hisobiga foydaning kamayişi
Milliy valuta uluşini oşiriş	Söm depozitlari stavkalarining jozibadorligi, inflatsiyaning pasayişi	Stavkalar farqi sababli valuta kreditlariga talab
Islom moliyasi	ÖRQ-1126-son Qonun, yangi mijozlar segmenti	Standartlar va infratuzilmaning şakllanmagani

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari va tadqiqot natijalari asosida muallif işlanmasi [2; 12; 13; 17; 19; 22].

Uşbu yönalişlarni amalga oşiriş uçun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. **Davlat banklarini transformatsiya qiliş.** Korporativ boşqaruvni kuçaytiriş, muammoli aktivlarni alohida boşqariş mexanizmini joriy etiş va xususiylaştiriş jarayonini bosqiçma-bosqiç davom ettiriş [9; 13].
2. **Resurs bazasini mustahkamlaş.** Davlat banklarida kredit-depozit nisbatini pasaytiriş uçun uzoq muddatli söm depozitlari va obligatsiyalar orqali resurs jalb qilişni rağbatlantiriş.
3. **Dollarlaşuvni kamaytiriş.** Sömdagi uzoq muddatli moliyalaştiriş vositalarini kengaytiriş, valuta daromadiga ega bölmagan qarzdorlar uçun valuta kreditlari böyiça ehtiyotkorlik talablarini kuçaytiriş va xedjlaş vositalarini rivojlantiriş [10].
4. **Aholi qarz yukini nazorat qiliş.** DTI va LTV çeklovlarini saqlaş, kredit tarixi va öz-özini kreditdan çeklaş xizmatlarini kengaytiriş, moliyaviy savodxonlikni oşiriş [11].
5. **Kredit riskini boşqarişni takomillaştiriş.** MHXS 9 asosida kutilayotgan kredit zararlari modelini joriy etiş, muammoli kreditlar böyiça erta ogohlantiriş tizimlarini yaratiş.
6. **Raqamlaştirişni çuqurlaştiriş.** Oçiq banking, masofaviy identifikatsiya va sun'iy intellektga asoslangan skoring tizimlarini joriy etiş, bir vaqtning özida kiberxavfsizlik talablarini kuçaytiriş [12].
7. **Kiçik va örta biznesni kreditlaş.** Kafolat mexanizmlarini kengaytiriş va hududlarda bank xizmatlaridan foydalaniş imkoniyatini oşiriş.
8. **Islom moliyasini joriy etiş.** Murobaha, mudoraba va boşqa mahsulotlar standartlarini işlab çiqiş, kadrlar tayyorlaş va nazorat infratuzilmasini şakllantiriş [3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. 2026-yilda bank tizimi aktivlari ilk bor 1 kvadrillion sömdan oşdi va 1-oktabr holatiga 1 044,8 trln sömga yetdi; yil boşidan ösiş 13,0 foizni taşkil etdi.
2. Sof foyda yanvar–sentabr oylarida 40,3 foizga ösib, 15,26 trln sömga yetdi, ROE 14,1 foizga kötarildi. Biroq foyda yirik banklarda töplangan va ösiş asosan foizsiz daromadlar hisobiga ta'minlanmoqda.
3. Depozitlar kreditlarga nisbatan tezroq ösib, kredit-depozit nisbati 145 foizdan qariyb 132 foizga pasaydi, ammo davlat banklarida bu körsatkiç yuqoriligiça qolmoqda.
4. Markaziy bank kredit ösişini ongli ravişda sekinlaştirmoqda, ösiş asosan korporativ segment hisobidan keçmoqda; aholi kreditlari tarkibida mikroqarzlar qisqarib, ipoteka, avtokredit va kartalar uluşi oşmoqda.
5. Asosiy xavflar: muammoli kreditlar uluşining 3,0 foizdan 3,7 foizga oşişi va ularning davlat banklarida töplanişi, dollarlaşuv va aholining qarz yuki.
6. Istiqbolda raqamlaştiriş, davlat banklarini transformatsiya qiliş, xususiy sektor kreditlaşi, Bazel III va MHXS 9 talablariga moslaşiş hamda milliy valutadagi va islom moliyasiga asoslangan moliyalaştirişni kengaytiriş ustuvor bölişi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. UzDaily. Активы коммерческих банков Узбекистана выросли на 20,5%. – URL: https://www.uzdaily.uz/ru/aktivy-kommercheskikh-bankov-uzbekistana-vyrosli-na-205/

2. Kursiv Research. Узбекистан готовится к трансформации финансовых рынков. – 17.04.2026. – URL: https://kz.kursiv.media/2026-04-17/lshr-uzbekistan-gotovitsya-k-transformatsii-finansovykh-rynkov/
3. Anhor.uz. Markaziy bank bayonoti: 2026-yil yanvar–sentabrda YAIM 8,3% ga o‘sdi. – URL: https://anhor.uz/ru/news/tsentrbank-uzbekistana-rost-tarifov-2027
4. Spot.uz. Markaziy bank 4-noyabrda asosiy stavkani 14% darajasida saqladi. – 04.11.2026. – URL: https://spot.uz/ru/2026/11/04/base-rate-retained
5. King R. G., Levine R. Finance and Growth: Schumpeter Might Be Right // The Quarterly Journal of Economics. – 1993. – Vol. 108. – No. 3. – P. 717–737.
6. Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence // Handbook of Economic Growth / Ed. by P. Aghion, S. Durlauf. – Vol. 1A. – Amsterdam: Elsevier, 2005. – P. 865–934.
7. Arcand J.-L., Berkes E., Panizza U. Too Much Finance? // Journal of Economic Growth. – 2015. – Vol. 20. – No. 2. – P. 105–148.
8. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A. Government Ownership of Banks // The Journal of Finance. – 2002. – Vol. 57. – No. 1. – P. 265–301.
9. Levy Yeyati E. Financial Dollarization: Evaluating the Consequences // Economic Policy. – 2006. – Vol. 21. – No. 45. – P. 61–118.
10. Mian A., Sufi A., Verner E. Household Debt and Business Cycles Worldwide // The Quarterly Journal of Economics. – 2017. – Vol. 132. – No. 4. – P. 1755–1817.
11. Philippon T. The FinTech Opportunity // NBER Working Paper. – No. 22476. – Cambridge, MA, 2016.
12. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program – Financial System Stability Assessment // IMF Country Report. – No. 25/145. – Washington, DC, 2025.
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Financial Stability Report for 2025. – Toshkent, 2026. – URL: https://cbu.uz/upload/medialibrary/f5f/iqjyfmdh69h9yaojzm1dd16q7dyxeh0q/Financial-Stability-Report-for-2025.pdf
14. Daryo.uz. Uzbekistan’s Annual Inflation Slows to 6.4% in September 2026. – 22.10.2026. – URL: https://daryo.uz/ru/2026/10/22/uzbekistans-annual-inflation-slows-to-6-4-in-september-2026/
15. Kursiv Uzbekistan. ЦБ повысил прогноз инфляции в Узбекистане с 6,5% до 7% в 2026 году. – URL: https://uz.kursiv.media/?p=2136227
16. Anhor.uz. Banklar aktivlari va kapitali, 2026-yil 1-sentabr holatiga. – URL: https://anhor.uz/ru/news/banki-uzbekistana-aktivy-86-mlrd
17. Anhor.uz. Hududlar kesimida jismoniy shaxslar kreditlari, 2026-yil 1-oktabr holatiga. – URL: https://anhor.uz/uz/iqtisodiyot/hududlarda-jismoniy-shaxslar-kreditlari-hajmi-qancha
18. UzDaily. Uzbekistan Banks’ Net Profit Rises 40.3% to 15.26 Trillion. – URL: https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-banks-net-profit-rises-403-to-1526-trillion/
19. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Financial Stability: Executive Summary (Key Indicators as of 1 January 2026). – URL: https://cbu.uz/upload/medialibrary/70e/51714kiqfd1w0zsnmoe5sh6m7hfp2ogu/3.-Executive-Summary-financial-stability-eng.pdf
20. UzDaily. Доля проблемных кредитов в банках Узбекистана составила 3,7%. – URL: https://uzdaily.uz/ru/dolia-problemnykh-kreditov-v-bankakh-uzbekistana-sostavila-37
21. Kursiv Uzbekistan. Deposit Boom in Uzbekistan: Drivers and Prospects. – URL: https://uz.kursiv.media/en/opinions/deposit-boom-in-uzbekistan-drivers-and-prospects/

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100